



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**SO‘Z – GAPLARNING NOVERBAL VOSITALAR BILAN
IFODALANISHI**

THE USE OF WORDS BY NONVERBAL MEANS

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/RWGP4390

Isoqulova Qunduz Nurbobo qizi

Toshkent shahar Uchtepa tumani

106-maktab o‘qituvchisi,

qisoqulova@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada so‘z-gaplar tushunchasi mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o‘rni o‘rganilgan. Tilshunoslikda nolisoniy vositalarni o‘rganuvchi alohida tilshunoslik sohasi paralingvistika va uning turlari keng muhokama qilingan. Shuningdek, so‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi, xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug‘at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o‘rni izohlangan.*

***Kalit so‘zlar:** so‘z-gaplar, paralingvistika, noverbal vosita, modal so‘zlar, undov so‘zlar, tasdiq-inkor so‘zlar, taklif-xitob so‘zlar.*

***Annotation.** The article discusses the concept of words and their role in linguistics. In linguistics, a distinct branch of linguistics that studies grammatical means has been widely discussed, namely paralinguistics and its types. Also, the role of words and phrases in non-verbal means, their connection with the lifestyle, worldview and culture of the people and their role in increasing the vocabulary, reflecting the national color.*

***Keywords:** are words, phrases, paralinguistics, nonverbal communication, modal words, words of encouragement, words of affirmation and denial, words of suggestion and challenge.*

Jahon tilshunosligida til hodisalarini tizimli o‘rganish lingvistik sohada tub burilish yasadi, ya’ni jahon tilshunosligida bir qator yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi, tilning struktur-funksional qatlamlarini chuqur o‘rganishga oid nazariy paradigmalar vujudga keldi. Bunday burilishlar tilshunoslik oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtda tilshunoslik sohasida til va jamiyat, til va madaniyat, til va shaxs, til va tafakkur, til va gender kabi muammolar tadqiqi bilan shug‘ullanib kelayotgan sotsiolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlarda talaygina ishlar qilinmoqda.

XXI asr jahondagi globallashuv jarayonlarida millatlararo munosabatlarning yangi bosqichga chiqqanligi shaxslararo muloqotning yangi qirralarining ochilishi va yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga turtki bo‘ldi. So‘zlovchining kommunikatsiyadan maqsadi tinglovchiga o‘z fikrini lisoniy va nolisoniy vositalar orqali yetkazishdan iborat. Noverbal aloqa vositalari muloqot jarayonida ishtirok etuvchi qo‘shimcha vositalar bo‘lib, ular ma’lum axborotni berish, uzatilayotgan axborotga qo‘shimcha kiritish, aniqlashtirish kabi vazifalarni bajaradi. So‘zlovchi

jonli so‘zlashuv nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida nutqiy vaziyatdan kelib chiqib nutqqa yondosh bo‘lgan noverbal vositalardan unumli foydalanadi.

Tilshunoslikda nolisoniy vositalarni o‘rganuvchi alohida tilshunoslik sohasi paralingvistika deb yuritiladi. Har bir tilning lingvomadaniyatida muloqot etiketining o‘ziga xos va rang-barangligini ko‘rsatuvchi yana bir omil noverbal vositalardir. Paralingvistik vositalarning qator turlari mavjud: imo-ishoralar (tana qismlarining harakatlari) kinesika (hissiyotlarni tashqi tana azolari orqali ifodalanishi), pantomima (qomat bilan bog‘liq harakatlar, egilish, qomatni tik tutish), takesika (muloqot jarayonida siypalash, teginish, itarish harakatlari) proksemika (muloqot qatnashchilarining yaqinlik masofasi), mimika (yuz mushaklarining harakatlari) kabilar shular jumlasidandir. Alohida ta’kidlash o‘rinliki, noverbal vositalar so‘zlash nutqining emotsianalligini, ta’sirchanligini, tushunarligini oshiradi. Yevropa tilshunosligida Patterson, Gifford, Horgan, Hall, Fridlund, Zebrovits, Geller, Wiener nolisoniy vositalarni diaxron aspektida o‘rganib, tilshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlarni berdi. Imo-ishoralarning zamonaviy va tarixiy jihatlari Kendon, Shmitt, Laver, Bavelas va Chovil tomonidan paralingvistika sohasida o‘zlaridan oldin ish olib boruvchi olimlarning turli fikrlarini tanqidiy o‘rganib, o‘zlarining qimmatli ilmiy xulosalarini taqdim qilishdi. O‘zbek tilshunoslari uzoq yillardan beri noverbal vositalar ustida qator muhim tadqiqotlarni olib bordi. Xususan, Abdulhamid Nurmonov, Siddiqjon Mo‘minov, Sharifa Iskandarova, Ma‘murjon Saidxonov kabi tilshunos olimlarimiz o‘zbek tili paralingvistik vositalarning turli jihatlari o‘rganishdi. Tilshunos olim Ma‘murjon Saidxonov “Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tiliga xos paralingvistik vositalarni somatik, kommunikativ xususiyatlari va ishlatilishiga ko‘ra tasnifladi va ulardan foydalanish, muloqotning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash to‘g‘risidagi fikrlari bilan bo‘lishdi.

O‘zbek tilshunosligida A.G‘ulomov so‘z-gaplarni “Bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar” doirasida o‘rgangan. Olim so‘z-gaplar atamasini qo‘llamagan. U hozirda *modal so‘zlar* deb yuritilayotgan birliklarni *kirish so‘zlar* deb atagan va unga shunday ta’rif bergan: “So‘zlovchi o‘z nutqini tasdiqlash yo gumon bilan qarash yoki nutqining boshqa kishiga tegishli ekanini bildirish uchun gapiga *albatta, shubhasiz, balki* kabi so‘zlarni qo‘shadi. So‘zlovchining o‘z nutqiga bo‘lgan ishonch, gumon, sevinch kabi hodisalarni bildiradigan so‘zlar *kirish so‘zlar* deyiladi” [Гуломов, 1948: 54]. Tilshunos bunday kirish so‘zlarni quyidagicha tasniflagan: “Kirish so‘zlardan *albatta, shubhasiz, hech shubhasiz, so‘zsiz* kabilar ishonch va tasdiqni; *ehtimol, balki* kabilar gumonni; *shoyad, koski* kabilar umidni; *afsuski, essizgina, attang* kabilar achinishni; *uning so‘ziga ko‘ra, uning aytishicha, mening fikrimcha, aytishlaricha* kabilar gapning kimga qarashli ekanini; *demak, umuman, shunday qilib* kabilar oldingi yo keyingi gapga munosabatini bildiradi. Misol: *Bizning ishimiz haqqoniy ish, shuning uchun dushmani, shubhasiz, yengamiz*”. So‘z-gaplar muammosini maxsus o‘rgangan E.Shodmonov esa, so‘z-gaplarning o‘ziga xos tabiati, alohida sintaktik kategoriya ekanligi, morfologik asosi; so‘z-gaplarda predikativlik, modallik va

intonatsiyaning o‘rni; undalma, kirish so‘zlarga munosabati va ulardan farqi; so‘z-gaplarning shakllanishida kontekst, situatsiya va mimikaning o‘ziga xos roli; dialog va monologlar, qo‘shma gap, ko‘chirma gapli qurilmalar tarkibida qo‘llanilishi, buning o‘ziga xos tomonlari; nutqda yakka, takror, yondosh gaplar bilan kelishi; so‘z-gaplarning kuzatilgan maqsad va intonatsiyasiga ko‘ra turlari kabi qator masalalarni batafsil yoritib berdi. B.O‘rinboyev ham E.Shodmonov so‘z-gaplarning mohiyati, grammatik belgilari, morfologik asosi, strukturasi, ma’no turlari haqida muhim fikrlarni bayon etganligini “O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari” kitobida e’tirof etadi [Шодмонов, 1970: 50–61]. E.Shodmonovning qayd etishicha, chet el tilshunosligida, jumladan, turkologiyada ham so‘z-gap terminining ishlatilishi *ha* va *yo‘q* so‘zlarining mustaqil gap holida qo‘llana olishini o‘rganishdan boshlangan. Olim so‘z-gaplarga tavsif berar ekan, uning, asosan, dialogik nutqqa xosligini ta’kidlab, quyidagi xulosani keltiradi: “Biz e’tirof etayotgan sintaktik hodisa – tub mohiyati bilan ana shu so‘zlashuv nutqining bir formasi bo‘lgan dialogik nutqqa xosdir”.

Inson fikr-mulohazasini bildirishda, hissiy kechinmalari va voqelikka munosabatini ifoda etishda til birliklari qatorida bosh, qo‘l, yelka harakatiga asoslangan ishoralar; ko‘z, qosh, lab ishtirokidagi turli mimik ifodalardan ham unumli foydalanadi. Umuman, bunday noverbal vositalar tilning yordamchi vositalari bo‘lib, axborotning yanada yorqin ifoda etilishiga xizmat qiladi. M.Saidxonov muloqot jarayonida qo‘llaniladigan bu kabi noverbal vositalarni ishoraviy va mimik noverbal vositalarga ajratish mumkinligi haqida yozadi [Саидхонов, 1993: 26].

Nutqda noverbal vositalarning so‘z-gaplar bilan birga qo‘llanilishi ham kuzatiladi. Bunday vaqtda so‘z-gaplar orqali ifoda etilgan axborot mazmunan boyitiladi, nutq egasining hissiy munosabati yanada ravshanlashadi. O‘zbek tilida so‘z-gaplar bilan birga, asosan, quyidagi noverbal vositalarning qo‘llanilishi kuzatiladi:

Qani-qani, marhamat	– Marhamat! – dedi qo‘li bilan imo qilib. (O‘.Hoshimov)
<i>Ha, yo‘q, xo‘p, bo‘pti, mutlaqo, zinhor, qaydam, albatto, him, shubhasiz, yaxshi</i>	1. – <i>Yaxshi!</i> – <i>dadam ma‘qullab bosh silkidi.</i> (O‘.H.) 2. – <i>Voh, voh!.. Nega bo‘lmasam... Him, – u bosh irg‘ab qo‘ydi.</i> (Sh.Xolmirzaev)
<i>Assalomu alaykum, salom, rahmat, tashakkur, urra, omin, xayr</i>	1. – <i>Omin!</i> – <i>dedi birdan musiqa muallimi hovuchini ochib. – Ishingizga qut-baraka bersin. Bekorchilar siz tufayli ishli bo‘lib qolsin!</i> (Sh.Xolmirzaev) 2. <i>Rahmat!</i> – <i>Sherzod minnatdor bosh silkidi.</i> (O‘.Hoshimov)
<i>Zo‘r, ofarin, qoyil</i>	<i>Gulsara «qoyil» deganday boshini saraklatdi. Men ham qoshlarimni ko‘tarib:</i>

	– Zo‘r, zo‘r, – dedim. (Sh.Xolmirzaev)
Uf, uh, oh, voy, e	1. – Voy, o‘lsin! – dedi egachim labini burib. (O‘.Hoshimov) 2. – E! – u jahl bilan qo‘l siltadi. (O‘.Hoshimov) 3. – Vuy! – Abduvalining ko‘zi olayib ketdi. (O‘.Hoshimov)

Badiiy asarda personajning mimik ifodalari, jumladan, yuz harakati, unda aks etgan o‘zgarishlar tasviri uning ruhiy holatini tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan, *rangida rang qolmadi, ko‘karib qoldi, rangi gezarib ketdi, dokaday oqarib ketdi, qizarib ketdi, rangi o‘chib ketdi, yuzi shuvut bo‘ldi* kabilar personajning ruhiy holatini aks ettiradi:

– *Iye!* – *Ko‘zoynakli yigit rangi o‘chgancha tobutga qaytadan tirmashdi.* (O‘.Hoshimov)

Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi.

– *O‘h-ho‘! Ja osmondasiz-ku, yigit!.. Gap bunday: uch kunda to‘rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”)

Misollardan ko‘rinib turibdiki, *Iye!*, *O‘h-ho‘!* so‘z-gaplari qo‘llangan matnda yuz ifodasini aks ettiruvchi *rangi o‘chgancha, rangi gezarib ketdi* birliklari ham ishlatilgan. Bu holat ushbu so‘z-gaplar mazmunini yanada aniq idrok etilishiga xizmat qilgan. Shuningdek, personajning ruhiy holati tasvirlanib, badiiy matnga konnotativ ma’no yuklangan.

Nutqda tasdiq va inkorni bildiruvchi axborotni *ha, yo‘q* so‘z-gaplarini qo‘llamay, faqat noverbal vositalar yordamida ifodalash ham mumkin:

Berdiyev (bidirlab): Eshitdingizmi, yanga? Sizam javobgar bo‘lasiz! (Hanifa indamay bosh irg‘adi) (O‘.Hoshimov)

Ushbu misolda personajning tasdig‘i bosh irg‘ash orqali ifoda etilgan.

Xullas, so‘z-gaplar bilan noverbal vositalarning parallel qo‘llanishi so‘z-gaplar mazmunining yanada kuchli ifodalanishiga xizmat qiladi, personajning ruhiy holatini aniqroq tasvirlaydi.

So‘z-gaplar xalqning turmush tarzi, madaniyati, qadriyatlari, e‘tiqodlari, an‘analari, tilining xususiyatlari, jamiyat hayoti va madaniyatini o‘zida mujassam etgan qolipli so‘zlardir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, muloqot jarayonida lingvistik vositalarga yondosh hodisa bo‘lgan noverbal vositalarning so‘z-gaplar bilan birga qo‘llanilishi nutqning ta’sir kuchini oshirishi bilan birga, tinglovchi tomonidan uning aniq tushunilishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 33.

2. Қурбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2001.
3. Раупова Л.Р. Диалогик нутқнинг дискурсив талқини. – Тошкент: Фан, 2011.
4. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. – Тошкент, 1948.
5. Шодмонов Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1970. – Б. 50–61.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’ nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbalarida ishlangan Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk</i> 'ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775